

ЎТМИШГА НАЗАР

4 - МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК - 4

LOOK TO THE PAST

SPECIAL ISSUE - 4



Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

«Ўтмишга назар» илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Зияева Доно Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети, Қозоғистон

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат тиббиёт институти

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
профессор, Телави давлат
университети, Грузия

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Дипломатия академияси,
Қозоғистон Республикаси

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Россия ФА, Санкт-Петербург
Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алина Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор
Давлат тарихи институти, Қозоғистон

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор
Ал-Фаробий номидаги Қозоғистон
Миллий университети, Қозоғистон

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Талапов Бахриддин Алижанович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

1. Доно Зияева ЭРОН САФАРНОМАЛАРИ ВА МЕМУАР АСАРЛАРИ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА.....	6
2. Санобар Шадманова ЎЗБЕКИСТОН ШАҲАРЛАРИ КЛАССИФИКАЦИЯСИ ВА ТИПОЛОГИЯСИ (1917-1941 ЙИЛЛАР).....	13
3. Надира Маҳкамова ЎРТА ОСИЁ МИЛЛИЙ-ҲУДУДИЙ ЧЕГАРАЛАНИШ МАСАЛАСИНИНГ СОВЕТ ДАВРИ АДАБИЁТЛАРИДА АКС ЭТИШИ.....	20
4. Қаҳрамон Алманов ИЛК ЎРТА АСРЛАР УСТРУШОНА ТАНГАЛАРИ.....	29
5. Шахноза Абдурахимова 1985-1991 ЙИЛЛАРДАГИ АҲОЛИ МУРОЖААТЛАРИДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИНГ АКС ЭТИШИ.....	39
6. Zebiniso Axmedova OLIMLARNING AHMAD DONUSH IJODI VA FAOLIYATIGA QARASHLARI.....	47
7. Гулчеҳра Аҳмедова СУРХОНДАРЁ БАҲШИЛАРИ.....	54
8. Komiljon Arziyev SHIMOLIY-BAQTRIYA MOZOR-QO`RG`ONLAR O`RGANILISH TARIXI (eramizdan avvalgi II asrlar oxiri va eramizning III asrlariga).....	59
9. Мансур Бойсариев ДИАСПОРА ТУШУНЧАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР КЕСИМИДА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	65
10. Шерзод Баҳранов РОССИЯНИНГ ЎРТА ОСИЁ БИЛАН ҚЎҚОН ОРКАЛИ ОЛИБ БОРГАН ЧОЙ САВДОСИ ТАРИХИДАН (XIX-аср охири ва XX-аср бошларида).....	74
11. Феруза Бобожонова БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ МАДРАСАЛАРНИНГ ҚУРИЛИШИ, МОДДИЙ-ХЎЖАЛИК ТАЪМИНОТИ ВА ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....	80
12. Назокат Бозорова СУРХОНДАРЁЛИКЛАРНИНГ ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДАГИ ЖАСОРАТИ.....	94
13. Шербек Ёдгоров МИСРДАГИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРНИНГ ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМ ВА РАДИКАЛИЗМНИНГ ЁЙИЛИШИГА ТАЪСИРИ.....	100
14. Бехзод Исабеков СУЮРЛИТЕПА ЁДГОРЛИГИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР.....	108

15. Дилфуза Исмоилова, Нор Бердиев XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА КОНЧИЛИК ВА МЕТАЛЛУРГИЯ ТАРИХИДАН.....	113
16. Фарходжон Исматуллаев ЕВРОПА ИТТИФОҚИ БИЛАН ҲАМКОРЛИК – ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА.....	121
17. Руфина Каюмова ЎЗБЕК ЖАНГЧИЛАРИНИНГ ЖАСОРАТЛАРИ УРУШ ДАВРИ ХАТЛАРИ САТРАЛАРИДА.....	129
18. Oybek Klichev, Nishona Hasanova SITORAI MOXI XOSA MUZEYI BINOLARINING TUZILISHI.....	135
19. Хушнудбек Мамадалиев ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА “ЯНГИ ШАҲАР” ЛАРНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УЛАРДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	141
20. Erkinjon Maxmudov BXSR HUKUMATINING VAQF MULKLARIGA BO’LGAN MUNOSABATI.....	152
21. Темур Мўминов ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ПОРТРЕТИГА ЧИЗГИЛАР.....	157
22. Ғайратхон Мухтаров ЧОТҚОЛ ТОҒ ТИЗМАСИ ПЕТРОГЛИФЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	166
23. Жамшид Перемкулов СОВЕТ ДАВРИДА САНОАТ ШАҲАРЛАРИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ (ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	173
24. Зафар Раҳманов ЧУСТ ЎТРОҚ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ВОҲА ЖОЙЛАШУВ ТИЗИМИНИНГ БОШЛАНИШИ.....	183
25. Элёр Раҳмонов ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ВА ЁШ ОИЛАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯЛАШ ЖАРАЁНИ.....	191
26. Зокир Рустамов 1920-1930 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОН, ТУРКИЯ ВА ЭРОНДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ИСЛОҲОТЛАР.....	199
27. Azamat Sanakulov MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY JARAYONLARDAGI XALQ DIPLOMATIYASINING AHAMIYATI VA O'RNİ.....	205
28. Нодир Сафаров РОССИЯ-БУХОРО АЛОҚАЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ТАРИХШУНОСЛИГИ ТАҲЛИЛИ.....	213

29. Анора Тоғаева ЎЗБЕКИСТОН ШАҲАРЛАРИДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИ: АҲВОЛИ ВА МУАММОЛАРИ (1950-1980 йиллар).....	219
30. Фарход Усманов 1920-1930 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАР ҚАРОВСИЗЛИГИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	226
31. Икромжон Умаров БАДАШ – КЎҲИТАНГТОҒ ҚИШЛОҚЛАРИ АҲОЛИСИНИНГ ҚАДИМИЙ МУСИҚИЙ САНЪАТИ.....	238
32. Гулнора Фарманова Н.И.ВЕСЕЛОВСКИЙ ВА УНИНГ АФРОСИЁБДАГИ АРХЕОЛОГИК ИШЛАРИ (АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТ УСУЛЛАРИНИНГ БИРЛАШИШ ТЎҒРИСИДА).....	245
33. Madina Chorieva XX-XXI ASRLAR TARIXSHINOSLIGIDA SO'NGGI MANGIT AMIR SAYID OLIMXON.....	250
34. Шахло Хусанова БУЮК ИПАК ЙЎЛИДАГИ МИНГТЕПА ШАҲРИ.....	255
35. Фурқат Тошбоев, Наргиза Каримова УСТРУШОНАНИНГ ҚАДИМГИ ШАҲАРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ БУЮК ИПАК ЙЎЛИ САВДОСИДАГИ ЎРНИ.....	261

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Oybek Abdurasulovich Klichev,

Buxoro davlat universiteti "Buxoro tarixi" kafedrası o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nishona Normurotovna Hasanova,

Buxoro davlat universiteti "Tarix va madaniy me'ros"
fakulteti 2-bosqich magistranti

SITORAI MOXI XOSA MUZEYI BINOLARINING TUZILISHI

For citation: Oybek A. Klichev, Nishona N. Khasanova, STRUCTURE OF THE MUSEUM OF SITORAI MOHI HOSA. Look to the past. 2020, Special issue 4, pp.135-140



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-4-18>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sitorai moxi xosa muzeyi binolarining qurilish tarixi, muzey xonalari va zallari tarixi, hozirgi kundagi ta'mirlash ishlari, yangi joriy etiladigan xizmat turlari hamda saroy muzey ekspozitsiyalari xususan, o'sha davr jihoz va buyumlari, kiyim-kechaklari, zeb-ziynat buyumlari, saroy badiiy me'morchiligi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. Shu bilan birga, saroy qurilishida ishtirok etgan ustalar va ularning faoliyati, qurilishda ishlatilgan materiallar tarkibi, tuzilishi haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xonai safed, yozgi saroy, qo'shbegii bolo, xonai hasht, saroy zallari, qabulxona, xonai kalon.

Ойбек Абдурасулович Кличев,

Бухарский государственный университет,
доктор философии по истории кафедры «История Бухары»

Нишона Нормуротовна Хасанова,

Бухарский государственный университет,
магистрант 2 курса по специальности
«История и культурное наследие»

СТРУКТУРА ЗДАНИЯ МУЗЕЯ СИТОРАИ МОХИ ХОСА

АННОТАЦИЯ

В этой статье описывается история строительства музея Ситораи Мохи Хоса, история комнат и залов музея, реставрируемые работы в наши дни, новые услуги и музейные экспонаты дворца, в частности, оборудования и аксессуары той времени, одежды и украшения, информация о художественной архитектуре дворца. При этом приведены информации о мастерах, задействованных в строительстве дворца и их деятельность, состав и конструкции использованных материалов при строительстве.

Ключевые слова: Белый дом, летний дворец, кушбеги боло, хонаи хаст, дворцовые залы, приемная, большой зал.

Oybek A. Klichev

Bukhara State University, Ph.D.

in history of the department "History of Bukhara"

Nishona N. Khasanova

Bukhara State University,

2nd year undergraduate

in History and Cultural Heritage

STRUCTURE OF THE MUSEUM OF SITORAI MOHI HOSA

ABSTRACT

This article describes the history of the construction of the Sitorai Mohi Khosa Museum, the history of the rooms and halls of the museum, the works being restored today, new services and museum exhibits of the palace, in particular, equipment and accessories of that time, clothing and decorations, information about the artistic architecture of the palace. At the same time, information is provided about the craftsmen involved in the construction of the palace and their activities, the composition and design of the materials used in the construction.

Index Terms: White house, summer palace, double room, eight rooms, palace halls, reception room, large hall.

1.Dolzarbligi:

O'rta Osiyo memorchiligi qadim zamonlardan oq dunyo madaniy taraqqiyotida salohiyatli o'rin tutib kelganligi qadim Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlarining tarixiy obidalarini misolida namoyon bo'lib turibdi. Ayni paytda zamonaviy me'morchiligimiz ham dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Buning boisi shundaki, zamonaviy me'morchiligimiz o'zining teran tomirlaridan quvvat olgan holda izchil rivojlanmoqda va tobora takomillashib bormoqda. Mustaqillik yillarida butun O'zbekistonimizda qad rostlagan ko'plab zamonaviy inshootlarda ota-bobolarimizning me'morchilik kasbiga munosabatimiz, mehr-u sadoqatimiz, ixlos va e'tiqodimiz mujassam bo'lib yaqqol ko'rinib turibdi. Sitorai Moxi Xosa muzeyidagi ekspozitsiyalar Buxoro amirligi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Saroyning ahamiyati amirlar qarorgohi bo'lgani bilangina emas, balki XIX-XX asrdagi me'morchilik san'atining yuksak namunasi ekanligi, xalq badiiy hunarmandchiligining eng nodir buyumlari bu yerda jamuljam qilingan maskan ekanligi bilan belgilanadi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ushbu tadqiqotda tarixiy izlanishlar olib borishning tarixiylik, obyektivlik va xolislik metodlariga tayanildi. Asl manbalar asosida ish ko'rish, sinxronik yondoshuv va qiyosiy tahlil usullari keng qo'llanilib, masalaga milliy qadryatlar va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligi jihatdan yondashildi. Tarixiy voqelikka baho berishning uch me'yoriy o'lchovi: o'tmish, bugun va istiqbol tamoyillari o'rtasidagi bog'liqlik prinsiplariga amal qilindi. Tarixiy tadqiqotlar olib borishning zamonaviylik konseptual masalalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan Respublikadagi yetakchi tarixchi olimlarning asar va tadqiqotlari ushbu maqolaning ilmiy – nazariy asosini mustahkamlashga xizmat qildi. Tadqiqotning uslubi o'z ichiga quyidagilarni oladi: amaliy tekshiruvlar, amaliy tekshiruvlar natijasida olingan qiymatli tahlil qilish, shu muammoga bag'ishlangan adabiy manbalarni o'rganish, arxiv, grafik manbalarni tahlil qilish, bevosita kuzatuv ishlarini olib borish va fotografik ma'lumotlar to'plash.

Kryukov K.S. Sitorai Moxi Xosa saroy binolarining tuzilishi va qurilish tarixini tasvirlab bergan. Axmad qizi X. "Xos saroyning noxos ahvoli" nomli maqolasida Sitorai Moxi Xosa me'moriy majmuasini ta'mirlashdagi sustkashliklar xususida to'xtalib o'tadi.

Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa risolasida saroy qurilish tarixi, qurilishda ishtirok etgan ustalar, ekspozitsiyalar, amir Olimxon va uning avlodlari taqdiri, saroy peshtoqida bitilgan baytlar,

milliy liboslar haqida fikrlarini bayon etgan, bundan tashqari, “Oymonand yulduzlar qasri” nomli maqolasida Sitorai Moxi Xosa me’moriy majmuasining yaratilish tarixi xususida, Sitorai Moxi Xosa ansamblining mustaqillikdan keyingi ta’mirlanishi haqida so’z yuritgan.

Nusratillo N. Buxoro “Tojmahali” nomli maqolasida Sitorai Moxi Xosa saroyining qurilish tarixini haqida yozgan.

Hamroyev M. “Yodgorliklar yoddan chiqmasin” nomli maqolasida Sitorai Moxi Xosa me’moriy majmuasi haqida sayohatchilarning fikrini o’rgangan.

Fayziyeva Sh. Sitorai Moxi Xosa me’moriy majmuasining ichki tuzilishini, ta’mirlanishi, ekspozitsiyalari xususida tahlil qilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

K.S.Kryukovning “Sitorai Mohi Xosa” kitobida muallif “Buxoro tashqarisidagi saroy (Eski saroy) ni o’tgan asrda Buxoro so’nggi amirining otasi Ahadxon qurdirgan” ligini aytib o’tadi. Qurilishga saroy me’mori Hoji Hafiz rahbarlik qilgan. Endilikda saroy va uning boshqa xonalari anchagina shikastlangan. Eski saroyning sharq tomonidan Ahadxon saroyigacha bo’lgan oraliqda barpo qilingan yangi kompleks Yevropa me’morchilik uslubida qurilganligini ta’kidlaydi. Saroyning bog’i ham bo’lib, kattaligi 6,7 gektarni tashkil qiladi. Gulzorlar, chiroyli ishkamlar, mevazor va hayvonot bog’idan iborat. Saroy bog’ining atrofi baland paxsa devor bilan o’ralgan. Saroyning shimol tomonida asosiy kirish darvozasi, janub tomonida esa yo’lagining usti ayvonga o’xshab ishlangan yana boshqa darvoza bor. Bu darvoza maydonga qaragan. Maydonda an’anaviy uloq o’yinlari o’tkazilgan. Hozir saroyning bir qismida Buxoro o’lkashunoslik muzeyi, qolgan qismida esa sanatoriy va dam olish uyi joylashgan. Sitorai Mohi Xosaning ichkarisiga darvozaxonadan kiriladi. Bu yerda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro me’morchiligining inqirozga uchraganligi ko’zga yaqqol tashlanadi. Avvalo darvoza ustidagi ravoq O’rta Osiyo binolariga xos bo’lmagan shaklda ishlangan, yon qismlari sirlangan to’q qizil, ko’k-gunafsha va havo rang sopollar bilan qoplangan. [1] An’anaviy ana shu sirkor (biroq rangi aynigan) parchinlar bilan birga Rossiyadan keltirilgan va pechkalar ustiga qoplash uchun ishlatiladigan kafel qoplamalardan ham foydalanilgan.

Darvozaning tepa qismiga alebastrdan ishlangan guldon shakldagi bezaklar o’rnatilgan. Bu yerdagi eng qimmatli narsa yog’ochdan ishlangan ikki tavaqali darvoza xolos. Darvozaga go’zal o’zbek milliy naqshlari solinib, u o’ymakorlik uslubida ishlangan. Darvoza mis mixlar bilan mustahkamlanib, nafis guldor zulfin bilan bezatilgan. Darvozaxonadan tashqi hovli (hovli berun) ga kiriladi. Uning uch tomoni yengil qilib qurilgan ayvon bilan o’ralgan. Darvozaxonadan kirishda o’ng qo’lda kichkina ichki hovlili yana bir bino bor. U xazina deb atalgan. Xazina yangi saroy bilan tutashgan. Qarama-qarshi tomonda, burchakda ikkinchi eshik bo’lib, uning qayrilma yo’lagidan eshik og’asining xonasiga kiriladi.

Tashqi hovlining janub tomoniga 1912-1914-yillarda qurilgan yangi saroy tutashib ketgan. Saroy binolari “II” shaklida tushgan. Natijada ichki hovli (ro’yi xonai darun) ni binolar uch tomondan o’rab olgan. Hovli sahniga yassi parchinlar yotqizilgan bo’lib, o’rtasida kichkina favvora bor. Katta ayvon hovlining shimol tomonida joylashgan. G’arb tomonida Oq xona (Xonai safid), janub tomonida esa oynavanli ayvon (choyxona), kutish xonasi va amirning qabulxonasi joylashgan. Saroy binolariga kiraverishda G’ozg’on marmaridan mahalliy ustalar yo’nib ishlagan sherlarning haykali bor. Ilgari hech qachon haykal tarashlash bilan shug’ullanmagan Buxoro ustalariga murakkab naqshlar solish osonroq edi. Bunga amir qabulxonasi dahlizining albastrdan qilingan devoriga ishlangan kishini hayratda qoldiradigan naqsh-gullar, bezaklar misol bo’la oladi. Devor ayrim-ayrim taxtalaga bo’lingan va ularga ochiq rangli chiroyli guldonlar, gullar solingan. Qadimiy an’anaviy uslubda bezatilgan bu xonani naqqosh Hasanjon ishlagan. [3]

Buxoroning XIX-XX asrlardagi eng ajoyib badiiy me’morchilik namunalaridan biri Yangi saroydagi Oqxonaning ichkarisidir. Sharqning jimjimador, nafis naqshlari, jozibador qilib ishlangan gullari ajoyib griklar bilan uyg’unlashib ketgan. Ko’zgularning ko’pligi ichkarining an’anaviy bezagini buzmagani, chunki haligi naqsh va gullar o’sha ko’zgular ustiga solingan. Devorning ko’zgulardan iborat bo’lishi va gulganchdan ishlangan bezaklarning ko’zni qamashtiradigan darajada oqligi xonani juda ko’rkam qilib ko’rsatadi. Oqxonani ikki yil mobaynida xalq ustalari

qurishgan va pardoqlashgan. Unga Usta Shirin Murodov rahbarlik qilgan. [1] Keyinchalik Usta Shirin Murodov O'zbekiston SSR xalq me'mori va respublika Fanlar akademiyasining Faxriy akademigi degan unvonlariga sazovor bo'ldi.

Amir Olimxonning Yangi saroyi asosan muhandislari Sakovich va Margules rahbarligida qurildi. Ular amir saroyida xizmat qilardilar. Saroy Rossiyadan keltirilgan ko'zgular, kafelli golland pechlari, billur shamdonlar, karnizlar, uy jihozlari bilan jihozlandi. Lekin bu buyumlarning ko'pchiligi saroyning milliy bezagiga mos tushmadi. Qabulxonalarning Yevropa uslubida biridan ikkinchisiga o'tiladigan qilib qator joylashtirilishi va binolarning tashqi tomonidagi bezaklar saroydagi yangilik edi xolos. Yangi saroyning kiraverishi bog'ga tutashib ketgan. Bog'ning shimoliy qismida haram joylashgan. Uning g'arbida haram xizmatkorlari uchun xonalari bo'lgan kichik hovli bor. Haram ham Yevropa uslubida qurilgan ikki qavatli va yarim doira shaklida qurilgan bu bino ichki hovliga qaragan. Ana shu jihatdan saroyning uy va hovlisini mahalliy me'morchilik an'analarini o'zida saqlab qolgan birdan-bir qism deyish mumkin. Bog'ning qoq o'rtasida sakkiz xonali ko'shk (xonai hasht) bor. Uning xonalari sakkiz qirrali qilib qurilgan mehmonxona atrofida joylashgan. Oshxonaning devorlari xuddi Buxoroning zarbof kashtalarini eslatadigan qilib chiroyli o'yib ishlangan. Tilla va kumush suvi yugurtirib bezatilgan. Ko'shkning janubida to'g'ri burchakli va devori tokchali katta xona bo'lib, u xonai kalon deyiladi. Bu xonaning qurilishi va bezagi Buxorodagi boy xonadonlarining mehmonxonasini eslatadi. Qolgan boshqa xonalar yotish (xonai xob) va xizmatkorlar uchun mo'ljallangan. Bog'ning janubiga 1917-1918-yillarda oynavonli gulxonasi bo'lgan katta ikki qavatli g'ishtli dang'illama bino, masjid, katta hovuz qurilgan. Hovuz gulrang G'ozg'on marmari bilan qoplangan. [3] Bino XIX asr oxiridagi soxta rus me'morchilig va "Mavritaniya uslubi" da qurilgan. Binoning ichida uzun yo'lak (koridor) bo'lib, xonalari faqat bir tomondan shamollatiladigan qilingan. Bu O'rta Osiyo sharoitida faqat qish fasli uchun qulay xolos. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Buxoro me'morlarining eski va yangi saroyiga ishlagan badiiy bezaklari, yog'och va ganchga o'yib ishlagan naqshlari chiroyli bo'lishiga qaramay arxitekturasidagi turli uslublar uzviy bog'lanmagan holda aralashib ketgan. Rus saroylariga taqlid qilish hamda eklektizm muhri bu saroylar me'morchiligida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Sitorai Moxi Xosa bog'ining rejasi diqqatga sazovordir. Saroyning barcha binolari bog' ichiga joylashganligiga qaramay. Bog'ning rejasi mustaqil desa bo'ladi. Aftidan bog'-saroy binolari qurilmasidan oldin barpo qilingan. [2] Bog' Temur va temuriylar davridagi Samarqand bog'lariga o'xshash an'anaviy chorbog'lar shaklida rejalangan. Bog' sahni bir-biriga perpendikulyar ketgan yo'laklar bilan to'rtta to'g'ri burchakli maydonchalarga bo'lingan. Shunga ko'ra u chorbog' deyiladi. Ma'lumki, O'rta Osiyodagi istirohat bog'larida chiroyli yo'llar bilan birga hamma yoqni yashil qilib turuvchi mevali daraxtlar ham ko'p bo'ladi. Bog'ning janubiy qismida hayvonlar uchun maydoncha bo'lgan. Ohular, chiroyli tovuqlar, qirg'ovullar yurgan, salqin joylar va yo'lkalor chorahalaridagi chaman gullar bog'ning chiroyiga chiroy qo'shgan. [3] Bunday serdaraxt va soya-salqin bog' Buxoroning yozgi jazirama oftobida kishiga orom beruvchi makonga aylangan.

O'sha vaqtlarda barcha qurilish ishlari maxsus devon nazoratida olib borilar edi. (Az baroi imorati podshoi komissiya) Bu komissiya-guruh tarkibiga rus muhandislari Morgulis va Sakovichlar bilan birga Usta Hoji Abdurahim Hayotov, Usta Abdug'affor mironxo'r, qushbegi vakili Mirzo Isomiddin Qorovulbegi kirishgan. "Qo'shbegii bolo" tomonidan berilib, mablag' bilan ta'minlashni esa moliya vaziri vazifasini bajaradigan "Qo'shbegii poyin" amalga oshirar edi. [3] Shahar ichkarisidagi qurilish ishlarini Husain devonbegi boshqarar, shahar tashqarisidagi ishlarga esa Latif devonbegi boshchilik qilar edi. Shu jumladan amir Olimxonning shahar tashqarisidagi yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosa qurilishini ham Latif devonbegi moliyaviy nazoratchi sifatida boshqargan. Odatga ko'ra, amir har bir yirik qurilishga bir taniqli ustani bosh me'mor qilib tayinlar edi. Tayinlanadigan bosh ustaning unvoni eng kamida miroxo'r bo'lishi kerak edi. Amir Sayyid Olimxon davriga kelib, Buxoroda 50 nafar qorovulbegi unvoniga ega bo'lgan usta bo'lgan. Ustalar unvonining eng yuqorisi to'qsabo unvoni hisoblanar edi.

Qarorgohning hozirgi shaklidagi asosiy binolari mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Mir Sayyid Olimxon hukmronligi (1911-1920-yillar) davrida bunyod etilgan. Shuning uchun qarorgoh tuzilishi eski va yangi saroylarga bo'linib, eski deganda Olimxon hukmronligi davridan ilgari

bunyod etilgan inshootlar nazarda tutilgan. Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylangani saroy qurilishi uslubida ham o'z ifodasini topgan. Olimxon qurilishlarni loyihalashtirishda rus muhandislari Sakovich va Morgules xizmatidan foydalangani tufayli ko'pchilik binolarning tashqi ko'rinishi yevropacha bo'lib, ichki bezaklar esa milliy uslubda bajarilgan. Rus muhandislari Abdulahadxon saroyini tashqarida qoldirib, uning sharq tomonida mahobatli bir me'moriy majmuani loyihalashtirganlar va buxorolik ustalar ishtirokida uni amalga oshirganlar. Saroy ichkarisiga hashamatli qilib qurilgan koshinkor peshtoqli darvozaxonadan kiriladi. [4]

Darvozaxona peshtoqi rang-barang koshinlar va shisha bezaklar bilan qoplangan bo'lib, ikki burchagida koshinli guldastalar qo'yilgan. Bu yerda ham yevropacha uslub ustunlik qilib, darvoza ustidagi ravoq, guldasta va peshtoq Buxoro me'morchilik uslubiga xos bo'lmagan to'q qizil, ko'k-binafsha va havorang sang-sopol koshinlar bilan qoplangan. Darvozaning peshtoqi tepasiga ganchdan ishlangan ko'zalar saroydagi ma'murchilik belgisidir. Yarimoy shaklidagi bezaklar esa saroyning husni jamolini oyga tenglashtirish nishonasidir. Darvozaxonaning tepasida qorovulxona barpo etilgan bo'lib, pastki qavatining yon tomonlarida soqchilar sergak turadigan hujralar mavjud. Darvozaxona qurilishidagi eng qimmatli ashyo qayrag'och daraxtidan yuksak mahorat bilan yasalgan o'ymakor darvozadir. Unda g'ijduvonlik mohir harrotlar Usta Jo'ra va Qori Cho'bin hafsala bilan yog'och o'ymakorligi uslubida go'zal Sharq milliy naqshlarini solishgan. Darvozaning yuqori va pastki qismiga nozik mis plastinkalari naqshsolingan qubballi ma'dan mixlar bilan yopishtirilgan hamda birinjidani quyma nafis gular bilan bezatilgan zulfing-halqalar osilgan.

Darvozaxonadan saroyga kirib kelgan mehmon tashqari hovliga qadam bosadi. Uning uch tomonida yog'ochdan yengil qilib qurilgan "chorkunj" usunli, ganchkor naqshlar bilan bezatilgan ayvonlar joylashgan. Ularga amir hazratlari qabuliga kelgan mehmonlarning otlari bog'lab qo'yilgan. Hovlining to'rtinchi tomonida hunarmandlarning ustaxonalari mavjud bo'lib, ular mehmonlar nazdida turli-tuman buyumlarni yasashgan. Darvozaxonadan kiraverishda o'ng qo'lda mo'jazgina hovlichadan iborat yana bir bino bor. U ichkaridan yangi saroy bilan tutashgan. Bu binoda amir xonadoni a'zolarining liboslari, ko'rpa-to'shaklar hamda xazina boyliklari saqlangan. Binoga qarshi tomonning chap burchagida esa yana bir eshik bo'lib, uning qayrilma yo'lagidan eshik og'asining xonasiga kirilgan. Tashqi hovlining janubiga yangi saroyning 1912-1914-yillarda barpo etilgan qabulxonasi tutashib ketgan. Ammo qabulxonaga kirish uchun tashqi va ichki hovlini bog'lab turgan dolondan o'tmoq lozim. Uning darvozasi nisbatan oddiyroq qilib bezatilgan gujum daraxtidan yasalgan. Dolonning usti Samarqand teragidan tayyorlangan yo'g'on to'sinlar va toldan yasalgan vassalar bilan yopilgan. Dolon orqali salqin shabada ichkari hovliga, maxsus uslubda ko'tarilgan baland ayvonning shimol tomon devoriga urilgan. Salqin shabada yo'l qidirib dolon darvozasidan ichkariga harakat qilgan. Qabulxona binosi "II" harfi shaklida qurilgan bo'lib, uni janub va g'arb tomonidan uylar, shimol tomonidan hashamatli ayvon o'rab turadi. [6]

Ayvonni mayin o'ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan ingichka ustunlar ko'tarib turibdi. Uning tomi to'rtta yarim yoy shaklidagi hovuzlarga bo'linib, peshtoqiga o'ymakorlik uslubida qoshsimon hoshiya chiqarilgan. Naqshinkor ustunlar va geometrik girix shaklida sayqal berilgan yog'och devorlar feruza rang, bezaklar esa tilla rangida bo'yalgani ayvonga alohida tantanavorlik ruhini bag'ishlaydi. Shuning uchundir bu yerni "Salomxona" deb atashgan. Uning qarshisidagi supa olti burchakli g'ishtlar bilan qoplangan bo'lib, o'rtasida kichik favvora bor. Ayvonning bog'ga tutash tomonidan tashqari hovliga o'tish yo'lagi arkasimon shaklda boshlanib, ganchkorlik naqshlari bilan bezatilgan hamda arabiy yozuvlar bitilgan va peshtoqining yuqori qismida ganchdan yasalgan guldona o'rnatilgan.

Yangi saroyning asosiy xonalari qolgan ikki tomonni egallaydi: g'arb tomonda "Oq uy" va yotoqxona, dahliz va kutish zallari, janub tomonda esa oynavand choyxona mirzaxona, ziyofatxona va shaxmat zali o'rin olgan. Ularning barchasi tashqi tomondan yevropacha uslubda, ichkari tomondan esa milliy uslubda bezatilgan. Janub tomondagi xonalar mehmonlarni yakka tarzda qabul qilishga mo'ljallangan. Bu yerda hukmdor ko'pincha eng yaqin amaldorlari bilan muloqot qilgan. Saroyning asosiy binosi qurib bitkazilgach, bog' ichida ko'shk va shiypolar barpo qilingan. 1915-yilda bunyod etilgan "Xonai Hasht" – sakkiz xonalik ko'shki loyihasiga ko'ra haqiqiy yevropacha ko'rinishi bilan diqqatni tortadi. Uning mehmonxonasi tomi mayda oq tunuka bilan gumbazsimon

qilib yopilgan. [7] Arka shaklidagi derzalarga tashqaridan nazar tashlaganda, bino yevropalik boylarning uylarini eslatadi. Ammo ko'shka kiraverishdagi ayvonchani qarama-qarshi devorlari va shifti yuqoriga qarab tarvaqaylab ketgan ajoyib guldastalar bilan bezatilgan bo'lib, chinakam sharqona uslubdagi san'at namunasidir.

4. Xulosalar:

Buxoro amirlarining Sitorai Moxi Xosa yozgi qarorgohi XIX-XX asrlar Sharq nafis me'morchilik san'ati va xalq badiiy hunarmandchiligi mahoratini o'zida uyg'unlashtirgan ajoyib majmuadir. Markaziy Osiyoda biror-bir me'moriy majmuada uni yaratgan ustalar naqshu namosi koshona ichidagi go'zal buyumlar jilosi bilan bunchalik darajasi hamohang tushmagan, desak, yanglishmaymiz. Sitorai Moxi Xosa qarorgohi shoh saroylarining Sharqdagi eng noyob tarixiy-me'moriy obidalaridan biridir, zeroki, Tehrondagi XIX asr shohlari Dehlidagi Boburiylar saroyi va dunyoga mashhur hukumdorlar qarorgohlari ham bunchalik yaxlit me'moriy majmua shaklida davrimizgacha eson-omon yetib kelmagan. Shuning uchun mazkur osori atiq ahamiyati jihatidan jahon madaniyatida Parijdagi Luvr qirollar qarorgohi, Versaldagi knyazlar, Sankt-Peterburgdagi Yekaterina va Nikolay saroylari Krimdagi Livada saroyi bilan bir qatorda turadi.

XX asr boshlarida Buxoro atrofida bunday saroylar bir nechta bo'lgan. Karmanadagi Abdulahadxon, Shirbuddindagi Muzaffarxon yozgi saroylari shular jumlasiga kirgan. Biroq, mamlakat poytaxtidan nisbatan yiroqda joylashgan bu qarorgohlar urushlar davrida talanib, keyinchalik yer yuzidan yo'q bo'lib ketgan. Faqatgina Sitorai Moxi Xosa saroyi inqilob to'fonlariga bardosh berib zamonamizga husni jamolini saqlagan holda yetib keldi. Bir tomondan bu, uning shahar markaziga yaqinligi, ikkinchi tomondan Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Musa Saidjonov singari yurt farzandlarining yuksak madaniyatimiz nishonasi bo'lgan bu bebaho osori atiqani dahilsiz holda kelgusi avlodlarga yetkazish sohasidagi say-harakatlari natijasidir. Saroyning ahamiyati amirlar qarorgohi bo'lgan bilangina emas, balki XIX-XX asrdagi me'morchilik san'atining yuksak namunasi ekanligi, xalq badiiy hunarmandchiligining eng nodir buyumlari bu yerda jamuljam qilingan maskan ekanligi bilan belgilanadi.

Sitorai Moxi Xosa me'moriy majmuasi hamda u yerdagi eksponatlar so'nggi amirlar turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, ijodini yaqqol namoyon etgan.

Иқтибослар/ Сноски/References:

1. Jumayev Q. Sitorai moxi – xossa. – Toshkent. 2010 y.
2. Kryukov K. S. Sitorai Moxi Xosa. – Toshkent: O'zbekiston, 1980. -13 b.
3. Xamroyev M. "Yodgorliklar yoddan chiqmasin" – Qishloq haqiqati. 1989. -B.4.
4. Axmad qizi X. Xos saroyning noxos ahvoli/ X. Axmad qizi //Buxoro haqiqati. - 1997. - 1 noyabr. - B.2.
5. Jo'rayev O. Sitorai Moxi Xosaning yangi jamoli/ O. Jo'rayev //Buxoro haqiqati. - 1974. - 24 oktabr. - B.3.
6. Jumayev K. Oymonand yulduzlar qasri/ Q. Jumayev //Buxoro haqiqati. - 1997. – 5-mart. - B.6.
7. Jumayev Q. Oymonand yulduzlar qasri/ Q. Jumayev //Qalb ko'zi. - 1997. – 14-may. - B.2.
8. Saydaliyev S. Sitorai Moxi Xosa/ S. Saydaliyev //Me'morchilik tarixidan. - 1977. 8 dekabr. - B.2.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

№SI-4 (2020)

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000